

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 178 (1239), 2024-yil 3-sentabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



ISLOM KARIMOV XOTIRASI HAMISHA YODIMIZDA

2-sentabr kuni davlat tashkilotlari vakillari,
Toshkent shahri jamoatchiligi Islom Karimovni yod etish uchun yig‘ildi.
Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bu yerga tashrif buyurib,
Birinchi Prezidentimiz haykali poyiga gulchambar qo‘ydi.



Islom Karimov mamlakatimiz mustaqilligini e‘lon qilgan va uni taraqqiyot yo‘liga olib chiqqan yetakchidir. Davlatimiz rahbari Mustaqillik bayramidagi nutqida buning tarixiy ahamiyatini alohida ta‘kidladi: “Aynan mustaqillik tufayli milliy davlatchilimiz qayta tiklandi. O‘zbekiston yangi tarixiy davrga qadam qo‘ydi. Aynan istiqloq tufayli jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladik”.

Shunday qutlug‘ kunda davlatimiz mustaqilligi uchun kurashgan va unga xizmatlari singgan vatanparvar insonlar xotirasini minnatdorlik bilan yodga olishimiz tabiiydir. Birinchi Prezidentimiz tarixning tub burilish pallasida, og‘ir davrda mamlakatimizga rahbarlik qilgan edi.

Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma‘rifiy yodgorlik majmuasida Qur‘on tilovat qilindi. Birinchi Prezidentimizning yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, aholi turmushini yaxshilash borasidagi xizmatlari yodga olindi.

Marosimda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezident Administrasiyasi, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar, jamoatchilik vakillari ham Birinchi Prezidentimiz haykali poyiga gullar qo‘ydi.

Xotira tadbirlari Samarqand va Qarshi shaharlarida ham bo‘lib o‘tdi.

O‘ZA

PREZIDENTIMIZ PARALIMPIYA G‘OLIBLARI BILAN TELEFON ORQALI SUHBATLASHDI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 1-sentabr kuni Parijdagi Paralimpiya o‘yinlarida g‘alaba qozonib, terma jamoamiz hisobidagi oltin medallar sonini beshtaga yetkazgan yengil atletikachilar Elbek Sultonov, Yorqinbek Odilov va taekvondochimiz Asadbek Toshtemirov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Prezidentimiz o‘z nomidan va barcha yurtdoshlarimiz nomidan sportchilarni samimiy qutlab, bu zafarlar eng ulug‘, eng aziz bayram — Mustaqillik kuniga munosib sovg‘a bo‘lganini ta‘kidladi. Paralimpiyachilarimiz murosasiz bel-lashuvlarda ko‘rsatayotgan yuksak mahorat va metin iroda butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ruhlantirayotgani qayd etildi.

Yurtboshimiz yigitlarning murabbiylari va ota-onasiga minnatdorlik bildirib, kecha sovrindor bo‘lgan sportchilarimizga ham salom va tabrik so‘zlarini yo‘lladi. Chempionlar har bir chiqishda davlatimiz rahbari va xalqimiz qo‘llovini his etganlarini ta‘kidlab, yurtimizda paralimpiya harakati rivojiga qaratilayotgan e‘tibor va yaratilgan sharoitlar uchun rahmat aytdilar.

O‘ZA

Dil izhori

DUNYONING ENG BAXTLI ayoliman

Bundan 28 yil oldin oddiy hamshira bo‘lib ishlardim, oyligimga qo‘shimcha daromad bo‘ladi, degan maqsadda ishdan keyin gulchilik bilan shug‘ullana boshladim. O‘sha payt ushbu kasbim tufayli kelajakda Prezidentimizning nazariga tushish, ko‘p tarmoqli tadbirkor bo‘lish, davlatimizning yuksak mukofotlarini olishni hech tasavvur qilmagandim.

Davomi 2-betda

Taraqqiyot odimlari

HAMMA ESHIKLARNI OCHADIGAN KALIT faqat va faqat ta‘lim va tarbiyadir

Muazzam “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib o‘tgan mustaqillik bayrami tantanalarining shukhi yurtimizning uzoq-yaqin hududlariga taralib, muhtaram Prezidentimizning tabrigi yuraklarda hamon sadolanib turibdi. Xususan, davlatimiz rahbari yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy e‘tiborni beshta ustuvor yo‘nalishga qaratgani, avvalo, sifati ta‘lim tizimini yo‘lga qo‘yishni birinchi navbatdagi vazifa sifatida belgilab bergani bizni behad quvontirib, mas‘uliyatimizni yanada oshirdi. Zero, tabrikda ta‘kidlanganidek, “Muammolarimizning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta‘limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham — faqat va faqat ta‘lim va tarbiyadir”.



Aynan shuning uchun ham mamlakatimizda keyingi yillarda maktabgacha va maktab ta‘limi rivoji yo‘lida tarixiy islohotlar izchil olib borilyapti. Hozirda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari (MTT) soni 37 ming 548 taga, 3-7 yoshli bolalarni bog‘chalarga jalb etish salkam 75 foizga, 6 yoshlilar qamrovi esa 93 foizga yetdi. Bundan yetti yil avval bolalarimizning bog‘chaga qamrovi bor-yo‘g‘i 27 foizni tashkil qilganini eslashning o‘zi sohada katta ishlar amalga oshganini yaqqol ko‘rsatadi. Shuningdek, 501 ta davlat MTTlarida davomat shaxsni biometrik identifikatsiya

qilish texnologiyasi orqali yuritilishi yo‘lga qo‘yildi. Bu orqali elektron tabellar hamda asosiy ko‘rsatkichlarni shakllantirish, oziq-ovqat xarajatlari hisobini yuritish imkoni yaratildi, 250 ta davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida xalqaro MELQO baholash tizimi joriy etildi. MTTlarda “Aqlvoy-oshpaz, bog‘chalar uchun taomlar retsepti” to‘plamidan foydalangan holda tuzilgan yagona mavsumiy taomnoma asosida tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirish tashkil qilindi.

Davomi 2-betda

Bir bo‘lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!

ISTIQLOLNING UZVIY BO‘G‘INI MA‘NAVIY MUSTAQILLIKDIR

O‘zbekiston bugun siyosiy mustaqilmi? Bu savolga baralla “ha” deb javob berish mumkin. Davlat bayrog‘imiz BMT qarorgohi ro‘parasida hilpirab turibdi. Qolaversa, MDH, SHHT, IHT kabi nufuzli mintaqaviy tashkilotlarning ham komil huquqli a‘zosimiz. Qator xalqaro va mintaqaviy masalalarda O‘zbekistonning qarashlari va nuqtayi nazari bilan hisoblashiladi, pozitsiyasi inobatga olinadi.

Masalan, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasini olaylik. Unda Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbuslarga a‘zo davlatlar yakdillik bilan xayrixohlik ko‘rsatmoqda. Xususan, 2018-yilning 2-iyulida Bosh Assambleyaning Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta‘minlash yuzasidan mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Zero, O‘zbekistonning ishtirokiz



mintaqada boshlangan biror jarayon muvaffaqiyatli yakun topishi qiyin. O‘sha yilning 12-dekabrida xalqaro hamjamiyat O‘zbekistonning yana bir tashabbusi — Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik to‘g‘risidagi rezolyutsiyani tasdiqladi. Shuningdek, Orol dengizidagi ekologik inqiroz va Afg‘oniston

muammosi bo‘yicha qizg‘in muhokamalar davom etmoqda. Chunki bu ikki masala mintaqaviy ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, aslida, global ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar aloqalar o‘rnatgan barcha davlatlarda diplomatik



vakolatxonalarimiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Buni yurtimizdagi diplomatik korpusning salmog‘i ham tasdiqlaydi.

Iqtisodiy mustaqilligimiz ham mustahkam. Uning tarkibiy qismlari bo‘lgan energetika, g‘alla va umuman, oziq-ovqat, suv mustaqilligi va boshqalar ta‘minlangan, ayrim yo‘nalishlarda biz hatto eksportchi maqomiga egamiz. O‘zbekiston sanoqli avtomobilsoz mamlakatlar qatoridan joy olgan. Xorijiy davlatlar bilan tenglik va o‘zaro manfaatdorlik asosidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar yil sayin rivojlanib bormoqda. Qaysi mamlakatdan delegatsiya kelmasin yo davlatimiz rahbari qaysi yurtga tashrif buyurmasin, bu voqea-hodisalarga doir axborot manbalarida savdo aylanmasi va investitsiyalar oqimi yuksalayotganini, hamkorlik ko‘lamini yanada kengaytirish uchun yangi-yangi kelishuvlarga erishilayotganini ko‘rish mumkin.

Davomi 3-betda

OLTIN AVLOD QUDRATI — YURT KO‘RKI

FRANSIYADA BO‘LIB O‘TAYOTGAN PARALIMPIYA O‘YINLARIDA O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARNING G‘ALABALI ODIMLARI DAVOM ETMOQDA.

Kuni kecha para yengil atletika bo‘yicha erkaklar o‘rtasida F41 klassida Bobur Omonov oltin medalni qo‘lga kiritdi. E‘tiborlisi, Bobur Omonov 14.32 metr natija qayd etib, o‘zi tomonidan 2021-yil Tokioda o‘rnatilgan Paralimpiya o‘yinlari rekordini ham yangiladi. Shu tariqa u ikki karra chempionga aylandi.

Ayollar o‘rtasida F54 klassida yadro uloqtirish bahslarida Nurxon Qurbonova hamda para yengil atletika bo‘yicha erkaklar o‘rtasida T12 klassida uzunlikka sakrash bahslarida Doniyor Saliev kumush medallarga sazovor bo‘ldi.

1-sentabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Parijdagi Paralimpiya o‘yinlarida g‘alaba qozongan paraatletlar bilan telefon orqali suhbatlashdi. Ta‘kidlash

joizki, davlatimiz rahbari bilan telefon orqali bu kabi muloqotlar sportchilarimiz hamda ularning murabbiylariga alohida motivatsiya, ruhiy kuch-quvvat bermoqda.

Paralimpiyaning kechagi kun yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston delegatsiyasi hisobida 6 oltin, 4 kumush va 4 bronza, jami — 14 medal jamg‘arib, kuchli o‘nta davlat tarkibida bo‘lib turibdi.





OʻZBEKISTON SEN BILAN

Paralimpiya chempioni Asila MIRZAYOROVAGA

Ey yuzlari oydin qiz,
Ey soʻzlari boldin qiz,
Kumushni ham oltinga
Aylantirgan oltin qiz,
Sen hammadan birinchi,
Sen hammadan oldin qiz,
Elning ezgu duosi —
Qutlugʻ zamon sen bilan,
Oʻzbekiston sen bilan,
Oʻzbekiston sen bilan!

Aziz Vatan, xalqimning
Koʻz ustida turgan sen,
Jahon ahli nigohin
Oʻzi tomon burgan sen,
Yurtboshining mehrini
Qalbi bilan koʻrgan sen,
Koʻngillarni toʻldirar
Mehri ummon sen bilan,
Oʻzbekiston sen bilan,
Oʻzbekiston sen bilan!

Sakragandek Amudan
Jaloliddin samani,
Bir sakrab lol aylading
Butun olam — hammani,
Yana bir bor yuksaldi
El gʻururi, yurt shaʼni,

Qadingni ur, qadingni
Davr-u davron sen bilan,
Oʻzbekiston sen bilan,
Oʻzbekiston sen bilan!

Manim osmon koʻnglimni
Yana aylagan osmon,
Koʻzimda quvunch yoshi,
Har tomchisi bir doston,
Sen asl qahramonsan,
Ikki karra qahramon,
Metin kabi iroda,
Sabr-u imyon sen bilan,
Oʻzbekiston sen bilan,
Oʻzbekiston sen bilan!

Bir yarashgan, koʻksingda
Oltin nishon turibdi,
Yulduzlarni opichlab
Koʻkda tugʻ — shon turibdi,
Shohsupada Asila —
Oʻzbekiston turibdi,
Xudo bergan saodat —
Shavkat-u shon sen bilan,
Oʻzbekiston sen bilan,
Oʻzbekiston sen bilan!

Gʻayrat MAJID



Sharofat NORIYEVA,
“Oʻzbekistonda xizmat
koʻrsatgan tadbirkor”
faxriy unvoni sohibi

Boshlanishi 1-betda

Kunlarning birida taqdirimni oʻzgartirgan voqea sodir boʻldi. Oʻsha yillar Jizzax shahrida faqat “Koʻk bozor”da gullar rastasi bor edi. Bir kishi rastadagi barcha gullarni koʻrib, oxirida mening oldimga keldi, bir gulni tanlab xarid qildi. Bularni kim yetishtirib berayotgani haqida soʻradi. Men gulchilikka qiziqishimni, ishdan keyin oʻzim gulchilik bilan shugʻullanayotganimni aytdim. Xaridor, albatta, bu ishimni rivojlantirishim zarurligi, gulchilik yaxshi kasb ekani va tadbirkorlikning kelajagi borligini aytib ketdi.

Keyin bilsam, xaridor oʻsha paytdagi viloyatimiz hokimi, hozirgi paytda mamlakatimizni yangi va yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqayotgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ekan. U kishining soʻzlari menga katta kuch va dalda berdi. Shundan soʻng bor eʼtiborimni gulchilikka bagʻishladim.



2023/2024-oʻquv yilida 500 ta maktabda ixtisoslashtirilgan maktablarining baholash tizimi joriy etilishi natijasida oʻquvchilar oʻzlashtirishi 53 dan 59 foizga oʻsdi. Bundan, albatta, oʻqituvchilar ham manfaat koʻrmoqda. Yaʼni yangi baholash tizimi joriy qilingan rahbar va oʻqituvchilariga 10-40 foizli ustamalar berish tizimi joriy etildi.



nashriyotidan ingliz tili, Xitoyning Beijing Language and Culture University Press nashriyotidan xitoy tili darslik majmualari xarid qilindi.

Bu haqida gap ketganda, yana bir yangilik tahliliga eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq. Davlat umumtaʼlim maktablariga oʻtgan yilda 500 nafar xorijlik mutaxassis — “til egalari” jalb etildi. Natijada ular faoliyat olib borgan 500 ta maktab oʻquvchilarining til bilish darajasi huddudlar kesimida oʻrtacha 5 foizdan 15 foizgacha oshganini koʻrishimiz mumkin. Shuningdek, til bilish sertifikatiga ega maktab oʻquvchilari soni 2024-yilda 37 ming 74 nafarni tashkil etib, bu koʻrsatkich 2021-yilga (10 ming 960 nafar) nisbatan 3,3 karra oshgan. Milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlariga ega

pedagoglar soni 2021-yilda 1944 nafar (5 foiz) ni tashkil etgan boʻlsa, hozirgi kunga kelib, ular soni 27 ming 992 nafarni tashkil etib, 56,5 foizga yetkazildi.

Oʻquvchilarimiz oʻrtasida xorijiy tillarni bilishni ragʻbatlantirishda Prezident sovrini uchun “Xorijiy tillarni oʻqitish boʻyicha eng yaxshi maktab” tanlovi ham muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda. Oʻtgan davr mobaynida mazkur tanlovda 14-16 yoshdagi 110 mingga yaqin oʻquvchilar ishtirok etdi. 2023/2024-oʻquv yilidagi tanlovning Respublika bosqichida qatnashgan 70 oʻquvchidan 39 nafari xorijiy tillarni S1 darajada, 30 nafari B2 darajada bilishi aniqlandi. Bu, albatta, yuqori natija hisoblanadi.

Umumiy oʻrta taʼlim tizimidagi muhim islohotlardan yana biri 288 ta maktabda

kasb-hunariga oʻqitish yoʻliga qoʻyilganidir. Quvonarlisi, 3805 oʻquvchi kasb orqali daromad topishni boshladi, ushbu tizim samarasini koʻrsatib turibdi. Misol uchun, oʻquvchilarimiz axborot texnologiyalari sohasida 10 million soʻmgacha, ishchi kasblar orqali 3 million soʻmgacha daromad topmoqda.

Yangi Oʻzbekistonda Prezidentimiz boshchiligida olib borilayotgan ochiq pragmatik tashqi siyosat natijalari taʼlimda ham oʻz ifodasini koʻrsatayapti. Jumladan, maktablarimiz PISA, TIMSS, TALIS, PIRLS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etmoqda. Bu jarayon bizga taʼlim tizimidagi oʻzgarishlarni xolis xalqaro ilmiy xulosalar asosida olib borish imkonini beradi. Shuning uchun bundan keyin ham xalqaro tadqiqotlardagi ishtirokimizni uzluksiz davom ettiramiz. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan hamkorlikda 2025-yil aprel-may oylarida maktablarimizda PISA xalqaro tadqiqotlarini oʻtkazishni rejalashtirganimiz.

Bizga ixtifor bagʻishlaydigan yana bir yutuq, bu — oʻquvchilarimizning xalqaro olimpiadalarda erishgan natijalari yildan yilga yaxshilanib borayotgani bilan bogʻliq. Xalqaro olimpiadalarda joriy yilning oʻtgan davrida oʻquvchilarimiz tomonidan 121 ta medal qoʻlga kiritildi (2023-yilda 69 ta boʻlgan). Hali

oldimizda Informatika xalqaro olimpiadasi turibdi, umid qilamizki, oʻquvchilarimiz unda ham yaxshi natijalarga erishadi.

Maktabdagi islohotlar samarasi shubhasiz pedagogik jamoaning salohiyatiga chambarchas bogʻliq. Shuning uchun biz keyingi yillarda malaka oshirish tizimini isloh qilishga alohida eʼtibor qarataymiz. Ayni yoʻnalishda Prezidentimizning 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab taʼlimi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori asosida A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tashkil qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilandi. Tizimdagi 262 ming 745 nafar rahbar va pedagog kadrlar malakasi oshirilib, 7949 nafar stajyor-oʻqituvchi kasbiy sertifikatlash sinovlariga jalb etildi, 455 nafar amaldagi direktorlar va 864 nafar direktor lavozimiga nomzodlar menejerlik oʻquv kurslarida oʻqitildi. Maktabgacha va maktab taʼlimi tizimi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning vertikal tizimi yaratildi.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda aniq va tabiiy fanlar boʻyicha 260 nafar, ingliz va fransuz tillar boʻyicha 129 nafar mahalliy trener tayyorlandi. Mahalliy trenerlar tomonidan kaskad usulida oʻtkazilgan toʻrt bosqichli treninglarda jami 10 ming 159 nafar direktor, 39 ming 725 nafar matematika va 48 ming 225 nafar tabiiy fan oʻqituvchisi xalqaro taʼlim dasturlari asosida oʻqitildi.

Alohida taʼkidga arziydigan muhim masala — 189 ming 858 nafar oʻqituvchi FaceID hamda Blockchain texnologiyasi asosida malaka toifa sinovidan oʻtkazilganidir. Bu yoʻnalishda shaffof va adolati tizim yaratildi, deya ishonch bilan qayd etish mumkin.

Vazirlik tomonidan amalga tatbiq etilayotgan yuqoridagi kabi chora-tadbirlar taʼlim sifatini oshirishga xizmat qilsa, maktablardagi infratuzilmani yaxshilash borasida ham qator ishlar jalal olib borilyapti. Xususan, joriy yildagi Investitsiya dasturi doirasida 608 ta maktabda qurilish-taʼmirlash ishlari bajarilib, 181,5 ming oʻquvchi oʻrni yaratish maqsad qilingan. Bu uchun budjetdan 3,7 trillion soʻm mablagʻ ajratilgan. Boshqa manbalardan yana 40 ming oʻquvchi oʻrni yaratiladi.

Biz maktab va maktabdan tashqari taʼlim samaradorligini oshirish uchun “Maktab — mahalla — oila” tizimi asosida ish olib

unutilmas kun sifatida tarixga muhrlandi. Davlatimiz rahbari men kabi bir qishloq ayolining mehnatini alohida eʼtirof etdi, ayniqsa, Jizzaxdagi Mehrbonlik uyi 15 nafar tarbiyalanuvchisini qaramogʻimga olganimni olqishlab, mamlakatimizda yangi taʼsis etilgan “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan tadbirkor” faxriy unvoni bilan taqdirlashga qaror qilganini eʼlon qilganida, butun ishtirokchilar buni qoʻllab-quvvatladi. Ushbu lahzada rostdan ham juda hayajonli oʻtdi. Koʻzlarim quvonchdan yoshlandi. Xursandligimdan soʻz topolmay, Prezidentimizga rahmat, deya oldim xolos. Bularni soʻz bilan ifodalash qiyin.

Eng ulugʻ, eng aziz ayyom — davlatimiz mustaqilligining 33 yilligi bayrami arafasida viloyat hokimi Ergash Saliyev viloyat faollari ishtirokida Prezidentimiz nomidan “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan tadbirkor” faxriy unvonini tantanali ravishda topshirdi. Jamiyatimizning eng baxtli ayollaridan biriman, desam hech mubolagʻa boʻlmaydi. Chunki mamlakatimiz tarixida birinchi boʻlib ushbu faxriy unvon bilan taqdirlandim.

Bu, oʻz navbatida, katta masʼuliyat ekanini his qilib turibman. Nasib qilsa, faoliyatimni yanada kengaytirib, yangi zafar marralariga erishib, ushbu ishonchni oqlayman, albatta.

Shu oʻrinda Prezidentimizning joriy yil biz — tadbirkorlar bilan oʻtkazgan qariyb besh yarim soatlik ochiq muloqotida sohani yanada rivojlantirish uchun muhim vazifalar belgilangan, yangi imkoniyat va imtiyozlar eshigi ochilganini qayd etmoqchiman. Ishonchim komilki, bu eʼtibor va yaratib berilayotgan qulay ishbarimlilik sharoiti yurtimiz taraqqiyoti, boy va saxiy tadbirkorlarimiz safi kengayishi, asosiysi, yurtdoshlarimiz turmush darajasi yuksalishiga xizmat qiladi.

Muvaffaqiyatlarim asosi, avvalo, yurtimizda tadbirkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ahil oila aʼzolarimning doimiy qoʻllab-quvvatlashi va albatta, Oʻzbekistonda tugʻilganimda deb bilaman. Bular bari mening faxrim va quvonchimdir.

Taraqqiyot odimlari



Hilola UMAROVA,
maktabgacha va maktab
taʼlimi vaziri

Boshlanishi 1-betda

2024-yilgi Investitsiya dasturi doirasida 177 ta MTIʼda qurilish-taʼmirlash va jihozlash ishlari amalga oshirilishi belgilandi. Mazkur maqsadlar uchun 1,02 trillion soʻm yoʻnaltirildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jami umumtaʼlim, Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar soni 10 ming 328 tani tashkil etib, ularda olti yarim milliarddan ortiq oʻquvchi tahsil olaypti. Xususi maktablar soni esa 489 taga yetkazildi.

2023/2024-oʻquv yilida 500 ta maktabda ixtisoslashtirilgan maktablarining baholash tizimi joriy etilishi natijasida oʻquvchilar oʻzlashtirishi 53 dan 59 foizga oʻsdi. Bundan, albatta, oʻqituvchilar ham manfaat koʻrmoqda. Yaʼni yangi baholash tizimi joriy qilingan rahbar va oʻqituvchilariga 10-40 foizli ustamalar berish tizimi joriy etildi.

Umuman olganda, pedagoglarimizning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadiga qator oylik ustamalar belgilandi. Xalqaro darajada tan olingan sertifikatga ega oʻqituvchilarning ish haqi miqdori sezilarli oshdi, Shuningdek, vazir jamgʻarmasi, direktor jamgʻarmasi ishlab turibdi, qolaversa, olis hududga borib ishlaydigan oʻqituvchilarga alohida ustama va imtiyozlar berilmoqda. Oʻquvchilari xalqaro olimpiadalarda gʻolib boʻlgan pedagoglarga BHMning 450 baravarigacha mukofot ajratiladi. Ayni paytda umumtaʼlim maktablarining 6000 dan ziyod pedagoglari 1000 AQSH dollaridan yuqori miqdorda ish haqi olmoqda. Bu raqamlar yildan yilga ortib bormoqda va yuqori maosh olish uchun hech qanday cheklor belgilanmagan. Oʻz ustida



Bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!

ISTIQLOLNING UZVIY BO‘G‘INI
MA‘NAVIY MUSTAQILLIKDIR

Boshlanishi 1-betda

Transport kommunikatsiyalari jadal rivojlantirilmoqda. Biz Kaspiy dengiziga, Fors ko‘rfazi va boshqa mintaqalarga chiqadigan temir yo‘l va avtomobil yo‘llari barpo etish bo‘yicha keng miqyosda hamkorlikka asos solganmiz.

Xuddi shunday fikrlarni madaniy-gumanitar sohada ham aytish mumkin. Xorijiy mamlakatlar vakillari yurtimizdagi madaniyat va san‘atga, ilm-fanga oid anjumanlarda, sport musobaqalarida, boshqa tadbirlarda faol ishtirok etmoqda. O‘zbekiston madaniyat va san‘at namoyandalari, olim va tadqiqotchilari, sportchilari chet davlatlardagi festivallarda, ilmiy seminar va simpoziumlarda, turli fan olimpiadalari va sport musobaqalarida shunchaki mehmon emas, balki an’anaviy qatnashchilarga aylangan. Biz uchun yana bir muhim jihati shundaki, o‘zbekistondagi madaniyat va tadbirlarda g‘oliblik qilishi ko‘pchilik uchun favqulodda hodisa emas, kutilgan natija o‘rnida ko‘riladi. Ya‘ni madaniyat va san‘at, ilm-fan va sportdagi salohiyatimiz allaqachon dunyoga tanilgan va e‘tirof etilgan.

Bularning barchasi istiqol bayrami arafasida ham, boshqa vaqtlarda ham tez-tez tilga olinadi. Ammo alohida to‘xtalish lozim bo‘lgan yana bir mavzu bor. Mustaqillikni mustahkamlashda ma‘naviy mustaqillik ham g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Uningiz istiqloqling barqarorligini ta‘minlash imkonini yo‘q.

Nima uchun shunday? Chunki biror xalqni yo‘q qilish uchun yadroviy qurollardan, qudratli armiya bosqinidan ham kuchliroq omil bor. Bu o‘sha xalqning xalqligini yo‘q qilishdir. Bunga uning o‘zligini, madaniyatini, tarixini, bir so‘z bilan aytganda, ma‘naviyatini barbad qilish bilan erishiladi. Mashhur diplomat va razvedkachi, 1953-1961-yillarda Markaziy razvedka boshqarmasi boshlig‘i bo‘lgan Allen Dallesning sho‘ro davlatini parchalash to‘g‘risidagi fikrlarini eslaylik. Uning aytganlari sovuq urush davrida mamlakat aholisini xufiya tarzda ma‘nan-axloqan buzishga qaratilgan edi. Afsuski, o‘sha fikrlar va shunga o‘xshash “g‘oyalar”dan bugungi kunda ham turli buzg‘unchi kuchlar foydalanishdan to‘xtagani yo‘q. Biz Allen Dallesni ayblashdan yiroqmiz, u josuslar sardori sifatida o‘z vazifasini bajargan. Lekin uning aytganlari va boshqalarning shunga o‘xshash fikrlari har qanday sog‘lom aql egasini hushyor torttiradi.

“Inson tabiati shundayki, u qiyinchilik payti tasalli izlaydi: kimdir dinga mukkasidan ketadi, bironlar ichkilikka beriladi, yana boshqalar buzuqlikdan taskin topmoqchi bo‘ladi, — degan edi mashhur josus. — Urushdan keyin bu xalq og‘ir ahvolda qoldi. Jangu jaddalarda turmush o‘rtog‘ini yo‘qotgan bevalar, sevgilisiz tashlab ketgan kuyinchak qizlar, hayotda o‘z o‘rnini topa olmay yurgan alamzada yigitlar... Ularga Xudoga tavakkal qilishni maslahat bering, har xil oqimlarga qo‘shib yuboring, bunday oqimlar bo‘lmasa, o‘zingiz tashkillashtiring! Ular ichkilikni yaxshi ko‘radi, urushdan oldin ko‘lbola samogon tayyorlaganlarini esiga soling, shunda o‘zlarini dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydiganek tuta boshlashadi.



Anvar BOBOYEV

Keyin toshqin sodir eting: ular qayoqqa boshqarsangiz, o‘sha tomon yuradi. Ular latifalarni yaxshi ko‘radi. Shu xususda “yordam bering”, buguni va ertasini mazax qiladigan latifalarni ko‘paytirib, tarqating. Nishonga aniq tegadigan latifa yashin misol tez yoyiladi. Ular “gap kelganda, otangni ham ayama”, deydi. Demak, latifa biri bo‘lmasa birining ongida yupqa bo‘lsa ham dog‘ qoldiradi va bu aksilsovet katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Har bir xalqning umidi — yoshlar. Biz ana shu tabaqqa davlatni aldashiga erishishimiz kerak. Yoshlar o‘yin-kulgiga moyil bo‘ladi, ularning ongiga yo‘l topishda shuni yodda tutish lozim. Ularning aql-tafakkurini hayotdan ma‘no yo‘qligi haqidagi og‘u bilan zaharleng, jinsiy masalalarga qiziqishini kuchaytiring, ommalashgan bemaza raqslar, chiroyli latta-putta, maxsus plastinka, she‘r va qo‘shiqlar bilan o‘zingizga og‘diring. Farzandlar har doim ota-onaga ta‘na qilish uchun bahona topa oladi. Shundan foydalaning! Yoshlarni katta avlod bilan nizolashtiring. Men alohida olingan har bir vaziyat uchun yana ham ko‘p usullarni aytib berishim mumkin. Bir gapni aytaman, xolos: ruhiy-axloqiy kurash usullarini qo‘llashga ijodiy yondashib, yangi-yangi narsalarni kashf qilishimiz kerak, toki ularning targ‘iboti bizga yetib olomasin va biz doim bir qadam oldinda bo‘laylik”.

Garchi bu gaplar 60-70-yil avval aytilgan bo‘lsa-da, biz allaqachon sho‘ro mustamlakasidan ozod bo‘lgan esak-da, yurtimizda va boshqa mamlakatlarda xuddi mana shu usullarning alomatlarini hozir ham ko‘rishimiz mumkin. Ularni bugun umumiy qilib “ommaviy madaniyat” deb atayapmiz.

Mana, “sariq matbuot” zo‘r berib qo‘ydi-chiqdi hangomalarini yozadi, “hayotiy voqea asosida suratga olingan” teleserialimizda ham buzuqlik haqidagi voqea-hodisalar haqida ko‘p gapiriladi, ilgari yotoqxonahodisalar umumam bo‘lmagan bo‘lsa, hozir er-xotinning dialogi, asosan, o‘sha yerda kechyapti. “Sevgilisiz tashlab ketgan kuyinchak qizlar, hayotda o‘z o‘rnini topa olmay yurgan alamzada yigitlar” obrazlarini matbuotda ham, televideniya ham bot-bot uchratamiz, ijtimoiy tarmoqlarni-ku gapirmasa ham bo‘ladi.

Bular qatoriga demokratiya niqobi bilan turli tuban, insoniylikdan yiroq harakat qo‘shildi. Qator davlatlarda chaqachalik ham salmog‘i bo‘lmagan ozchilik ko‘pchilikka hukmini yurgizmoqda. Overton tynug‘i bugun ko‘z oldimizda namoyon bo‘lyapti: ayrim mamlakatlarda bir jinsli nikohlar va pedofiliyani qonuniylashtirish va yosh bolalarni jinsini o‘zgartirishga chorlash holatlari uchrayapti, xalqaro miqyosda olsak, erkaklarning go‘yo jinsini o‘zgartirgan bo‘lib, sport musobaqalarida bezbetlik bilan ayollarga qarshi maydonga tushishi kabi xunukdan xunuk manzaralar kuzatilyapti. Bular bir mahallalr jinoyat hisoblangan bo‘lsa, bugun qaysidir ma‘noda faxr manbaiga aylalib boryapti. Demokratiya va inson huquqlari himoyasi bu buzuqlikka bahona, xolos. Asl maqsad jamiyatlarini parokanda qilish, an’anaviy qadriyatlarini yo‘qotishdir.

Yoshlar faqat o‘yin-kulgiga emas, o‘zlari qiziqarli sanagan hamma narsaga intiladi. Diskoteka, narkotik moddalar, ichkilik, aysh-u ishrat qatorida din niqobidagi turli oqimlarga ham. Ularni chalg‘itish juda ham oson. Chunki miya, ong hali vakuum, bo‘shliq holatida bo‘ladi, nimani birinchi bo‘lib tashlasangiz, o‘shani mahkam tutib qoladi.

“Ular ichkilikni yaxshi ko‘radi”. Bu umumiy aytilgan gap bo‘lib, aslida, kay-fu safo nazarda tutilgan. Ichkilikka berilmagan bo‘lsa-da, narkotik moddalar yo‘larni kabi ta’sir qiladigan taqtilangan dori vositalarini iste’mol qiluvchilar, afsuski, yo‘q emas. Juda bo‘lmaganida, quvvatni oshirib, tanani junbushga keltiradigan, jajavani ko‘zg‘aydigan ichimliklar iste’mol qilib, tonggacha diskotekadan beri kelmaydiganlar topiladi.

Latifa borasidagi gapga ham ko‘p misol keltirish mumkin. Har xil “qiziqchi” guruhlari vujudga keldi, ular minglab odamlarni yig‘ib katta-katta tomoshalar uyushtiryapti, zaldagilardan tashqari ijtimoiy tarmoqlar orqali ularni ming-minglab odamlar ko‘rib, go‘yo hordiq chiqaryapti. Ko‘pchilik nazdida “haqiqatni aytayotgan”, “hayotiy gaplardan so‘zlaydigan” bu guruhlari yoshlar ongiga ta’sir qilmaydi, deb o‘ylash katta xatodir. Ularning behayo shoularni ko‘rganlar hayotini shu asosda shakllantirishga intilmasligiga hech qanday kafolat yo‘q. Bezbetlik, andishasizlik, begachoparlik, kattalarga hurmatsizlik, kichiklarga beshafqatlik, jamoat joylarda ham behayo gaplarni baland ovozda aytishga ko‘nikish kabi illatlar negizida ruhiy-axloqiy, boshqacha ayganda, ma‘naviy qashshoqlik, yengil-yelpi hayotni afzal ko‘rish, vatan, chin muhabbat, poklik, halollik, bag‘rikenglik,

to‘g‘riso‘zlik, murosasozlik, xushmuomalalik kabi fazilatlarni mensimaslik, bunday xislatlar egalarini qoloqlikda ayblashga o‘xshagan muammolar yotadi.

“Ommalashgan bemaza raqslar, chiroyli latta-putta, maxsus plastinka, she‘r va qo‘shiqlar bilan o‘zingizga og‘diring”. Raqslar hamon bor, chiroyli latta-putta yoniga telefon va boshqa “aqli” texnika qo‘shildi, plastinka o‘rnini ijtimoiy tarmoqlar va USB disklar egalladi, hozirgi she‘r va qo‘shiqlarning aksariyatini she‘r va qo‘shiq deb bo‘lmaydi. Fonogramma tinglash uchun konsert zallariga talashib-tortishib chipta sotib olishning o‘zi kulgili, lekin ayni paytda juda achinarli holat.

“Farzandlar har doim ota-onaga ta‘na qilish uchun bahona topa oladi. Shundan foydalaning! Yoshlarni katta avlod bilan



nizolashtiring”. Kiyim-kechak, yangi ayfon, avtomobil, tilia buyum, tengdoshlari bilan maishat uchun pul, o‘gish yo‘l ishga kiritib qo‘yish va hokazoni talab qilib, ota-onasi bilan janjal qilayotganlar yo‘q desak, haqiqatdan ko‘z yumgan bo‘lamiz. Buni tan olishdan qo‘rqmaslik, aksincha, shunday muammo borligini e‘tirof etib, bartaraf qilish choralarni ko‘rish zarur. Qiyomat yaqinlashganing alo-matlaridan biri onaning o‘z xojasini dunyoga keltirishi haqidagi hadisini ko‘pchilik yaxshi biladi. Bugun kattalar farzandini o‘ziga ko‘jayin qilib olmasligi kerak. Uni faqat erkalash, aytganini shu zahoti muhayyo qilish bilan cheklanmay, tergab turish, o‘qish va ishlarni, davomatini tekshirib borish, fe‘l-atvori, xulqi, o‘zini tutishi va yurish-turishini kuzatish, hayot hamisha ham bir zaylda farovon kechavermasligini anglatish, qadriyatlariga hurmatini oshirish kabi tarbiyaviy ishlar o‘ta zarurdir. Jamoat transportida qariyalar yoki yosh bolali ayollarga joy bermaslik uchun “uxlash”, telefonda “ota zarur” ish bilan mashg‘ul bo‘lish, ko‘cha ko‘yda kattalarga yo‘l berish o‘rniga ularning ustiga tikka bostirib borish, jamoat joylarda baland ovozda gaplashish, musiqa tinglash yo‘l kliplar tomosha qilish, behayo so‘zlar ishlatis, navbatda turganlarni mensimaslik, “indamayapti, demak, qo‘rqayapti” degan ma‘noda har turli andishasizlik qilish, qo‘pollik, ojizlarga nisbatan so‘z ravonlik, mayib-majruhlarini haqoratlash va mazax qilish kabi ko‘ngilsiz manzaralar shu bilan daf etiladi.

“Ularga Xudoga tavakkul qilishni maslahat bering, har xil oqimlarga qo‘shib yuboring, bunday oqimlar bo‘lmasa, o‘zingiz tashkillashtiring!” Vahhobiylar, hizbuttahrirchilar, mazhabsizlar, soxta salafiylar, missionerlar va boshqa toifadagi buzg‘unchilar aynan yuqoridagi gaplarning amalidagi ifodasidir. Misol uchun, oyoqlari orasini shtangachilarga o‘xshatib keng ochib olib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib namoz o‘qiydiganlar ming yillar davomida yaxlit

qonun-qoidalarga amal qilib kelgan otabobolarimizdan aqliroq va ilmliroqmi? Soqol qo‘yishni sunnat sanab, keriladigan, lekin namoz payti masjid tomon emas, qarama-qarshi tarafga qarab ketayotganlarga ko‘pchilikning ko‘zi tushgan bo‘lishi kerak. Sunnatga amal qilganlarning farzni tark etishi ularning ilmdan dalolatini yo‘imonidanni, yo taqvosidanmi, bu ritorik savol bo‘lsa-da, sira tushunib bo‘lmaydigan holatdir.

Yoshlar faqat o‘yin-kulgiga emas, o‘zlari qiziqarli sanagan hamma narsaga intiladi. Diskoteka, narkotik moddalar, ichkilik, aysh-u ishrat qatorida din niqobidagi turli oqimlarga ham. Ularni chalg‘itish juda ham oson. Chunki miya, ong hali vakuum, bo‘shliq holatida bo‘ladi, nimani birinchi bo‘lib tashlasangiz, o‘shani mahkam tutib qoladi. Qur‘oni karim

“Jaholatga qarshi — ma‘rifat” g‘oyasi asosida hamyurtlarimizni, ayniqsa, yoshlarni radikal va ekstremistik oqimlardan, “ommaviy madaniyat” unsurlaridan himoyalash, ularda kuchli ma‘naviy immunitetni shakllantirish, dunyoqarash va tafakkur doirasini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, jamiyatda tinchlikparvarlik, bag‘rikenglik, ilm-ma‘rifat tamoyillarini mustahkamlash yo‘lida tahsinga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda.

Jaholatga qarshi kurashning eng ma‘qul va samarali yo‘li nima? Jahlga johillik bilan qarshilik ko‘rsatish yonib turgan olovga yog‘ sepih bilan barobar. Negaki, jaholat botqog‘iga botgan kishi o‘zini tubanlikda emas, yuksakda hisoblaydi, unga kimdir jahll qilgan sari jazavasi battar ko‘ziydi. Shu bois, jaholatga qarshi faqat ma‘rifat bilan kurashish kerak. Bu O‘zbekiston rahbariyati tanlagan eng to‘g‘ri, oqilona va odilona yo‘ldir.

Yurtimizda qisqa vaqt davomida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Hadis ilmi maktabi tashkil qilindi. Buxorodagi Mir Arab madrasasiga yangi hayot baxsh etildi. Bu muassasalarning barchasi xalqimizning ko‘p asrl ilmiy-ma‘naviy merosini o‘rganish, diniy va dunyoviy jihatdan tadqiq etish, milliy va xalqaro miqyosda targ‘ib qilish bilan birga, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashishga ham xizmat qiladi.

Bir jihati aytib o‘tish kerakki, O‘zbekiston xalqi nafaqat Xorazmiy, Zamaxshariy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug‘bek singari butun insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga hissa qo‘shgan, balki ayni paytda Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhonuddin Marg‘inoniy kabi islom ilmlari tarixidagi g‘oyat salmoqli o‘rin tutgan ajdodlari bilan haqli ravishda faxrlanadi. “Sahihul Buxoriy” islom olamida Qur‘oni karimdan keyingi eng mo‘tabar manba sanaladi. Dunyo musulmonlarining eng katta qismi Imom Moturidiy aqidasiini asosiy tayanch deb biladi. Burhonuddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari hali-hanuz islom huquqshunosligining bosh qo‘llanmasi bo‘lib qolmoqda. Tasavvufning Bahoddin Naqshband kabi eng yirik namoyandalari ham biz yashayotgan zamindan yetishib chiqqan.

Shuningdek, xayrli tashabbuslar natijasida yurtimizda turli ilmiy anjumanlar tashkil etilmoqda. Ular orqali ham ko‘hna Movarounnahr allomalarning boy merosi xalqaro miqyosda targ‘ib etilmoqda, ham xorijlik ulamo va mutaxassislar bilan jaholatga qarshi ma‘rifat vositasida kurashish g‘oyasi yo‘lidadgi sa‘y-harakatlar birlashtirilmoqda.

Yangi ochilayotgan markazlarga nufuzli xalqaro tashkilotlar xayrixohlik bildirishi, ularning ahamiyati haqida to‘lib-toshib so‘zlashi ham O‘zbekiston tanlagan yo‘lining to‘g‘ri ekanidan dalolatdir. Xususan, IHTning Islom tarixi, san‘ati va madaniyatini tadqiq etish markazi (IRICICA) Bosh direktori Mahmud Erol Qilich Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi to‘g‘risida ham rasmiy shaxs, ham xolis inson sifatida bunday fikr bildirgan:

— O‘zim rahbarlik qilayotgan markazning bosh maqsadi musulmon olimlarning jahon sivilizatsiyasi ravnaqiga qo‘shgan hissasini keng targ‘ib etishdan ham iborat. Islom ilmlari rivojida asosiy o‘rin tutgan allomalarni haqli ravishda yetuk siymolar sirasida ko‘ramiz. Umrinni shunday sharafli ishga bag‘ishlagan Imom Buxoriyning hayot yo‘li va mashaqqatli ijodi haqidagi ma‘lumotlarni, uning xizmatlari tufayli erishilgan yangi bilimlar mohiyatini jahon bo‘ylab kengroq tarqatishni ota yurtimiz — O‘zbekistondagi hamkasblarimiz ishtirokida amalga oshirishni imkonsiz deb bilmaymiz.

“Do‘st achitib gapiradi” deganlaridek, shonli sana kunlarida ayrim muammolar ko‘tarilganiga ajablanmang. Takror va takror aytishdan tolmaslik kerak: **istiqloqling uzviy bo‘g‘imlaridan yana biri ma‘naviy mustaqillikdir.** Ma‘naviy mustaqillikka esa ma‘rifat, ezigulik, tinchlikparvarlik, bag‘rikenglik kabi qadriyatlar orqali erishiladi. Bayram bahona mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarning bir qismiga to‘xtalishdan ko‘zlangan maqsad ham shu fikrni izhor etishdan iborat edi.

Bayram barchamizga muborak bo‘lsin!



Inson qadri uchun

ADOLAT QO'RG'ONI

TIZIMDAGI ISLOHOTLAR SUDLARNI
SHU MAQOMGA OLIB CHIQYAPTIIkrom MUSLIMOV,
O'zbekiston Respublikasi
Oliy sudi raisi o'rinbosari

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng bugungi kunga qadar ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda sud-huquq sohasida ham izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, o'tgan qisqa muddat ichida sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, sudlar faoliyati samaradorligini, odil sudlovni ta'minlash bo'yicha tarixiy islohotlar amalga oshirilganiga har birimiz guvohmiz.

Yangi O'zbekiston islohotlarining ilk davrlaridanoq Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev sudlar oldida turgan asosiy maqsadlarni aniq belgilab berdi. Ya'ni bunda sudni tom ma'noda adolat qo'rg'oniga aylantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish orqali xalqimizning sud tizimiga ishonchini qat'iy mustahkamlash zarurligi ta'kidlandi.

Aniqroq aytganda, fuqarolar sudni odamlarni qoralaydigan, jazolaydigan organ deb emas, aksincha, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qiladigan organ, adolat posboni deb qarashiga erishish vazifasi qat'iy qo'yildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan dastlabki hujjatlardan biri 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmondir. Ushbu tarixiy hujjat aynan sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoyalash kafolatlarini kuchaytirishga qaratildi.

Prezidentimizning 2017-yilda sudyalardan o'tkazgan tarixiy uchrashuvida sud tizimi oldiga aniq vazifalar qo'yildi.

Shuningdek, islohotlarning huquqiy bazasini yaratish maqsadida 7 yil ichida 60 ga yaqin qonun, farmon va qarorlar, xususan, sudlar faoliyatiga oid yangi qonunlar, shu jumladan, "Sudlar to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda, 3 ta protsessual kodeks — Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeks va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks yangidan qabul qilindi.

Islohotlarning huquqiy bazasini yaratish maqsadida 7 yil ichida 60 ga yaqin qonun, farmon va qarorlar, xususan, sudlar faoliyatiga oid yangi qonunlar, shu jumladan, "Sudlar to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda, 3 ta protsessual kodeks — Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeks va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks yangidan qabul qilindi.

YANGI O'ZBEKISTON



Bugungi kundagi vazifamiz o'rta bo'g'in sudlarining vakolatlarini kengaytirish orqali Oliy sud ish yuklamasini kamaytirish holda uning asosiy e'tiborini yagona sud amaliyotini shakllantirish bilan bog'liq tahliliy faoliyatini yanada jadallashtirishga qaratish hisoblanadi.

Sudlar faoliyatini takomillashtirish, insonparvarlik tamoyilidan kelib chiqib, xalqaro institutlarni milliy amaliyotga tatbiq etish borasidagi muhim yangiliklardan yana biri tergov sudyasi lavozimining joriy etilishi bo'ldi. Jumladan, Prezidentimizning shu yil 10-iyundagi "Tekzor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur farmonga muvofiq, Sudyalardan Oliy sud bilan birgalikda 2025-yil 1-yanvargacha tergov sudyasi lavozimini joriy etiladigan sudlarni yuqori malakali va mas'uliyatli kadrlar bilan ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Shuningdek, tergov sudyalari ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarini ko'rib chiqish vakolati ham yuklatilmoqda. Bu orqali jinoyat ishlarini bo'yicha birinchi instansiyada sudi sudyalari o'rtasida ish hajmi mutanosibli ta'minlanadi.

Qolaversa, bu jinoyat ishlarini ko'rish jarayonida ish bo'yicha isbotlanishi lozim

bo'lgan barcha holatlarni sinchkovlik bilan to'liq va xolisona tekshirib chiqish, sudlanuvchilarning barcha vajalarini tekshirish va tarafalar tomonidan keltirilgan iltimosnomalarni batafsil ko'rib chiqishga mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

Eng asosiysi, farmonda tergov sudyasi o'z faoliyatini mustaqil amalga oshirib, faqat qonunga bo'ysunishi hamda tergov sudyasi odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmasligi belgilandi.

Hozirgi kunda sudlar tomonidan tergov sudyalari faoliyatini tashkillashtirish borasida xalqaro tajribalar o'rganilib, dunyoning ilg'or mamlakatlari mutaxassislari jalb etilgan holda sudyalarni ishtirokida o'quv-seminar tashkillashtirilmoqda.

Xususan, yaqinda Germaniyadan kelgan prokuror Gerald Ryubzam, sudya Xelmut Laytxozer tomonidan tergov sudyalari faoliyatiga bag'ishlab o'tkazilgan o'quv-seminar mashg'uloti fikrimizga yaqqol dalil bo'la oladi.

Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston — yangi sud" tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sud-huquq tizimini isloh qilishni jadallashtirish, sohaga ilg'or xalqaro standartlarni joriy etish islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Shu maqsadda davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yil 16-yanvarda "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

farmon imzolandi. Bu tarixiy hujjatga asosan, mamlakatimizda ilk bor 2023-2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi tasdiqlandi.

Ushbu hujjat bizning keyingi 4 yil ichidagi ustuvor yo'nalishlarimiz va amalga oshiriladigan rejalimizni belgilab berdi. Hujjatga ko'ra, strategiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida:

birinchidan, "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida chinakam adolati sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaatini va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo'naltirish;

ikkinchidan, adolati sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalardan silyosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish;

uchinchidan, fuqarolar hamda tadbirkorlarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarini yaratish, sud ishlarini yuritishda tarafdorlarning tortishuvi va teng huquqliligi tamoyillarini to'liq ro'yobga chiqarish, sudlarning xolisligini amalda ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish;

to'rtinchidan, sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralarga elektron ma'lumot almashinuvi yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish;

beshinchidan, sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish, sudga hurmatsizlik qilish va sud ishiga aralashish holatlarining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish;

oltinchidan, davlat nomidan sud qarorlarini qabul qilayotgan sudlar va sudyalarga, shuningdek, ularning qarorlariga nisbatan har bir fuqaroda, shu jumladan, barcha darajadagi mansabdorlarda hurmat ruhini shakllantirish;

yettinchidan, sud qarorlarining qat'iy ijrosini ta'minlash, bu borada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas'uliyatini oshirish choralarini ko'rish;

sakkizinchidan, sudyalardan sud xodimlarida yuksak muomala madaniyatini shakllantirish orqali sudga murojaat qilgan har bir fuqaro va tadbirkoridan sud, pirovardida esa davlatdan rozlik hissini uyg'otish kabi asosiy vazifalar belgilandi.

Shuningdek, farmonda sudya kadrlarni tayyorlash tizimida mavjud muammolarga e'tibor qaratilib, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalardan sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish ilgari surilgan.

"O'zbekiston — 2030" strategiya tizimlari keng qamrovli islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Mazkur dasturlamal hujjatning "Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish" deb nomlangan 4-ustuvor yo'nalishida biz fikr yuritayotgan sohaga taalluqli muhim vazifalar belgilab berilgan.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar haqida so'z borganida, bu boradagi asosiy maqsadlardan biri davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda ma'muriy adliya tizimini yanada rivojlantirishdan iborat ekanini alohida ta'kidlash lozim.

Ana shu ustuvor vazifalarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishi sudning haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, unga nisbatan xalqimizning ishonchini oshirish va fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

O'z navbatida, sudlar yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim bo'g'ini bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq-manfaatlarini himoya qilish borasida oldiga qo'yilgan vazifalarni og'ishmay, mas'uliyat va qat'iyat bilan bajarish orqali mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash va huquq ustuvorligini ta'minlashga kamarbasta bo'lish lozim.

Yuksalish pallasi

HAR BIRIMIZDAN G'AYRAT-SHIJOAT
TALAB ETADIGAN MUHIT

Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi nishonlanayotgan ushbu kunlarda o'tgan davr mobaynida bosib o'tilgan murakkab yo'limizga yana bir bor nazar tashlash, mustaqil taraqqiyotimiz davomida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalarni xolisona baholash, ularning mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilik, butun xalqimizning ongiga shuuriga yetkazish maqsadga muvofiqdir.

Biz uchun "Mustaqillik" so'zi balandparvoz kalam emas. Yurt ozodligini qalban his qilamiz. Chunki davrlarni solishtirish va xulosa chiqarish imkonimiz bor. Dunyoning turli burchaklarida siyosiy o'zgarishlar, janjal-u to'polonlar kuzatilayotgan bir davrda ozodlik qadri yanada chuqurroq anglayapmiz.

Vatan insonning tug'ilib o'sgan yeri, uning go'daklik chog'idanoq mehr qo'rgan o'chog'i, mahallasi va qishlog'i bilan ta'rflanadi. Ona

yurtga muhabbat — yuksak insoniy fazilat. Unga bo'lgan muhabbat joy, makon, vaqt tanlamaydi.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg'loniy, Qaffol Shoshiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Ahmad Farg'oniy kabi buyuk allomalarimiz Vatanga bo'lgan kuchli muhabbat tufayli ko'plab asarlarini yurt nomi bilan bog'lagani tarixdan ma'lum.

Ona yurtga muhabbat, mehri amalda namoyon qilish oson ish emas. Bu insondan katta jasorat, bardosh, chidam, ma'rifat talab qiladi.

Bugun yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lida ezu islohotlar boshlangan va jadal sur'alar bilan davom etayotir. Bu jarayonda taraqqiyotning muhim asosi bo'lgan ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor kundan-kunga kuchaymoqda. Yosh avlodni bilimli qilish, yurt taqdiriga daxldorlik hissini oshirish, mehr-oqibat va hamjihatlikni mustahkamlash g'oyalarni keng tarqatib qo'yishni umumiy ijtimoiy harakatga aylantirish orqali jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni qurish to'g'risida masalalar har doimgidan-da dolzarb. Yoshlar eritmasi egalari, kelajagimiz bunyodkorlari, davlatning asosiy va bebaho boyligi ekan, O'zbekistonning har bir farzandi xalqimiz birkamligi, mamlakatimiz yaxlitligi uchun kurashib yashashni o'z hayotining ma'nosi deb bilishi, Vatanimizni

asrab-avaylashi, yangi O'zbekiston maqomini yanada mustahkamlashi kerak.

Termiz davlat pedagogika institutida talaba yoshlarning yetuk kadrlar bo'lib yetishishi, yurtga va o'z kasbiga sadoqatli bo'lishi uchun sharoitlar yaratilgan. Institut Surxondaryo viloyatidagi eng yosh oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lib, 2018-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Termiz filiali sifatida tashkil etilgan. 2022-yili esa Termiz davlat pedagogika instituti maqomi berildi. Ayni paytda bu yerda 28 ta kunduzgi ta'lim, 21 ta magistratura mutaxassislari mavjud. 12 mingga yaqin talaba tahsil oladi.

Talaba yoshlar muntazam ravishda respublika miqyosida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rik-tanlov va sport musobaqalarida faol ishtirok etib, sovrinlari o'rnlarni qo'lga kiritmoqda. Bugungi kunda ular safida Zulfiya nomidagi davlat mukofotining 2 nafar sovrindori, nomdor davlat stipendiyalari, xalqaro

Azizbek HASANOV,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

fan olimpiadalarning 12 nafar g'olibi, Yoshlar parlamenti 2 nafar a'zosi, Osiyo chempionati va Paralimpiya o'yinlarining 10 ga yaqin sovrindori bor. Iqtidorli talabalardan tuzilgan "Talabalar teatr studiyasi" guruhi yutuqlari ham institut jamoasini quvvatlaydi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida xalqaro ta'lim makonidagi integratsiya va



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 3-sentabr, 178-son

Mustaqilligimizning

33 YILLIGIGA
INTERVYU

MEN NECHUN SEVAMAN O‘ZBEKISTONNI?

QALBDAGI FAXR, MASRURLIK
YURTGA BO‘LGAN MUHABBATDIRAbduvali QAYUMOV,
“Mehnat shuhrati”
ordeni sohibi

Vatanni nima uchun yaxshi ko‘rishim... buni tushuntirish qiyin. Mana kuni kecha Mustaqilligimizning 33 yillik bayrami keng nishonlandi. “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi tantanali bayram tadbirida harbiylarimiz chiqishidan to‘lqinlandim. Bu gapni hozir sizga oddiy qilib to‘lqinlandim, deypman, lekin bu tushuntirib bo‘lmaydigan boshqacha tuyg‘u. Balki vatanga bo‘lgan muhabbat shudir?!



Ochig‘i, shunday yurtida tug‘ilganimdan faxrlanaman. Mamlakatimizning tinchligi, sarhadlarini ko‘z qorachig‘iday asraydigan o‘g‘lonlari qalbidagi iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi. Aytgancha, kim yoki nima bilandir faxrlansangiz, demak, uni yaxshi ko‘rasiz-da, to‘g‘rimi?! Vatanga bo‘lgan mehrimiz ham shunday. Uni nima uchun yaxshi ko‘rishingizni bilmay sevasiz.

Yigirma yildan beri Navoiy konmetallurgiya kombinatida faoliyat yuritaman. Hozir vaqt ortga qaytib, yana kasb tanlash qarshisida tursam ham baribir shu yerni tanlagan bo‘lardim. Chunki o‘z ishimni yaxshi ko‘raman. Oddiy rudadan qiymati

baland rangli metallarni ajratib olamiz. Ishlash davomida ham o‘ylab qolaman, inson hayoti ham mana shu rudalarga o‘xshasa kerak deb. Go‘dakni oq qog‘ozga o‘xshatamiz, kim qanday tarbiyalasa, o‘shanday inson bo‘ladi. Rudalar ham go‘yoki go‘dakday gap, ularning ichida oltin ham, mis ham bor. Biz eng keraklilarini ajratib olamiz va bu juda uzoq, mashqaqatli mehnat. Yoshlar tarbiyasi ham og‘ir masala. Bugun yurtimizda yoshlarga katta e‘tibor berilayotganidan quvonaman.

Prezidentimiz ham bayram tabrigida ta‘lim va tarbiyaga alohida e‘tibor berdi. Yaxshi kadrlar har qanday sohani rivojlantiradi. Bizning kombinatimiz misolida aytadigan bo‘lsam, yaqin yillargacha o‘zimizning kadrlar juda kam edi. Hozir deyarli barcha ishchilar Navoiy viloyati va unga qo‘shni

hududlarning tub aholisini tashkil qiladi. Bundan tashqari, texnikalarimiz uchun ko‘plab ehtiyoat qismlar ham o‘zimizda ishlab chiqarilmoqda. Xorijdan eng so‘ngi rusumdagi dastgoh va texnikalar olib kelinyapti. Ularni yoshlarimiz unchalik qiynalmasdan o‘zlashtirib olmoqda. Buning barchasi yurtimizda ta‘limga, iqtisodiy barqarorlikka katta e‘tibor berilayotganining natijasi deb bilaman.

Tarbiyani ham unutmamiz yo‘q. Kechagiday harbiylarning chiqishi, ayniqsa, vatanni himoya qilish yo‘lida halok bo‘lgan yurtdoshlarimiz xotirlangani nihoyatda to‘lqinlantirdi. Ularning farzandlari otasining yo‘lini davom ettirib, chegarachi, ichki ishlar, bojxona kabi sohalarni tanlagani ko‘ksimizni g‘ururga to‘ldirdi. Mana shu chiqish ham aslida, tarbiya. Bugungi yoshlarimizga, ularning kelajak yo‘lini to‘g‘ri tanlashiga turki.

Yurtimizda yoshlar tarbiyasi, ularning ta‘lim olishiga jiddiy qaralayotganini rudadan rangli metall ajratib olishimizga o‘xshataman. Bunday islohotlar samara berib, yoshlarning qalbidagi tuyg‘ulari saralanadi. Natijada esa eng qimmatbaho tuyg‘u, vatanparvarlik qalqib chiqadi.

Ha, men vatanni nima uchun yaxshi ko‘rishimni aniq aytib bera olmayman. Lekin uni yaxshi ko‘radigan, yurtsevar yoshlar qanday kamol topishi haqida gapirishga qalqib chiqishim bor. Buni yangi O‘zbekistondagi islohotlarni sarhisob qilib bilib olishingiz mumkin. Yurtimizning shunday jihatlari sabab taraqqiy etayotganini ko‘rib faxrlanaman. Ana shu faxr, masrurlik vatanga bo‘lgan muhabbatimdir.

Ha, men vatanni nima uchun yaxshi ko‘rishimni aniq aytib bera olmayman. Lekin uni yaxshi ko‘radigan, yurtsevar yoshlar qanday kamol topishi haqida gapira olaman. Buni yangi O‘zbekistondagi islohotlarni sarhisob qilib bilib olishingiz mumkin.

Yurtimizning shunday jihatlari sabab taraqqiy etayotganini ko‘rib faxrlanaman. Ana shu faxr, masrurlik vatanga bo‘lgan muhabbatimdir.

SHIROQDAY SHAXSLARNI
VATANPARVARLIK RUHI BALAND JAMIYAT
TARBIYALAYDIManzur ABDULLAYEV,
“Mehnat shuhrati”
ordeni sohibi

Yurtimizning shonli tarixi bor. To‘maris, Shiroqday qahramonlari, mahalla tizimida qadriyatlar o‘chog‘i bor. Biz mana shu yurtida tug‘ilib o‘sdik, qadr topdik. Biz vatanni tanlaganimiz yo‘q. Xuddi ota-onamiz kabi taqdir bizni shu zaminga munosib ko‘rdi.



Onamiz bizni dunyoga keltirgani uchun beg‘araz yaxshi ko‘ramiz. Vatanga bo‘lgan muhabbatni ham xuddi shunday deb bilaman. Haqiqiy farzand bo‘lsa, yurtini hech qanday sababsiz, ta‘ma qilmasdan sevadi. To‘maris va Shiroqni bekorga eslamadim. Ular vatanparvarlik timsoli, jonini shu yurt uchun tikkan shaxslar. Ular yurt boshiga tashvish tushganida eng odilona yo‘lni tanladi. Ko‘ksini qalqon qilib yurtini asradi. Vatanga bo‘lgan muhabbat mana shunday bo‘ladi. Ona yurtini nima uchun yaxshi ko‘rishingizni doim takrorlash shart emas. Zarur vaqtda chaqirig‘iga labbay deb javob bersangiz bo‘ldi. O‘sha davrda yurtini faqat Shiroq yaxshi ko‘rgan degan xulosaga ham bormaslik kerak, u shunchaki oqilona yo‘lni

topa olgan. Butun jamiyatda vatanparvarlik ruhi baland bo‘lgani uchun ulardek mard, tanti va tadbirli shaxslar yetishib chiqqan. Bugun ham yurtimizda shunday muhit yaratishga katta e‘tibor berilyapti.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarini yaxshi eslayman. O‘sha vaqtlarda aravani o‘ziga tomon tortmoqchi bo‘lganlar ko‘p va turfa edi. Tahlikali vaqtda o‘zimizni asrab qola oldik. Bugun ham bu mavzu dolzarb. Hozirgi tahlikali zamonda yoshlarni turli yot g‘oyalardan asrash, ularni Shiroq va To‘marislarga munosib avlod qilib tarbiyalash kerak.

Bu borada yurtimizda juda ko‘p islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mahalla tizimini mutlaq yangilashi sabab yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga

jiddiy e‘tibor qaratish imkoni tug‘ildi. Ya‘ni qadimiy qadriyatlarimizga mos ravishda nuroniylar mahallada faol fuqaroga aylandi. Masalan, hozir mahallalarda “Keksalar maslahati” guruhlari o‘z kuch va bilimlarini yoshlarga singdirishda alohida o‘rin tutadi.

Buni o‘zim yashab, faoliyat yuritadigan Qo‘qon shahri misolida aytam. “Bir faol nuroniyga o‘n nafar yosh” loyihasida shahar bo‘yicha to‘rt yuz nafarga yaqin yoshlarning muammolari bartaraf etildi. “Buvijonlar maktabi” ish faoliyatida 150 dan ziyod oila yarashtirildi va ko‘plab oilalardagi ajrimlar oldi olinmoqda. Yoshlarning bandligini ta‘minlashda ham nuroniylar faol. Buning barchasi o‘g‘il-qizlarimizning ta‘lim-tarbiyasiga qaratilayotgan e‘tibor deb bilaman. Bugungi mana shunday urinishlarimiz, harakatlarimiz ertaga samarasini beradi. Vatanparvar, elsevar o‘g‘il-qizlar biz ko‘zlagan marralarni zabt etadi. Mana shu harakatlar, islohotlarning ishtirokchisi bo‘lish, samimiy mehnat qilish ham aslida vatanparvarlik.

Ayrim hollarda odamni o‘zi yashab turgan makondan bezdiradigan jihatlar ham bo‘ladi. Masalan, atrofdagi odamlar yaxshi bo‘lmasa, bunday joyda yashashni istamay qolasiz. Ammo shunda ham siz o‘sha yerdan emas, odamlardan qochgan bo‘lasiz. O‘ziga shukrki, juda ajoyib xalqimiz, ochiq ko‘ngil odamlarimiz bor. Ular mustaqil O‘zbekistonning tayanchi, jon tomiri. Shu el Vatan shoni-shavkatini ko‘taradi! Men shunday xalqimiz borligi uchun ham shukrona aytaman.

CHIN BAHO

hudud rivoji, odamlar baxtiyorligida aks etadi

Jamshid NASRIDDINOV,
Kattaqo‘rg‘on tumani hokimi

Shu kunlarda butun yurtimiz bo‘ylab O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33 yillik bayrami shukuh davom etmoqda. Mana shunday tarixiy kezlarda odam o‘zini, qilayotgan ishini beixtiyor sarhisob qilarkan. Jondan aziz shu Vatanning bir farzandi o‘laroq uni qanchalar sevishi, bu yo‘lda erishilgan va boy berilgan imkoniyatlarini tahlil etarkan. Bir tomondan Kattaqo‘rg‘on tumani hokimi bo‘lib faoliyat yuritayotgan mas‘ul, boshqa tomondan, shu yurtning barcha qatori oddiy o‘g‘loni sifatida vijdonim bilan savol-javob qilamiz, tortishamiz. Aholi hayotida o‘zgarishlar sezilyaptimi, ularga qanday yengillik yoki qulayliklar yaratildi? Shu kabi savollar bahsimizning asosiy mavzusi bo‘ladi.

nafardan ziyod aholi qulupnay yetishtirish bilan shug‘ullanadi. Issiqxonalar qurish orqali qulupnay yetishtirishni rivojlantirish maqsadida 102 ta xonadonning 2 gektar tomoqasida issiqxona tashkil etildi.

Umuman olganda, tuman bo‘yicha 480 ta xonadonga 9 milliard 158 million so‘m mablag‘ yo‘naltirilib, 8 ming bosh parranda, 300 bosh chorva, 80 sotix maydonda ixcham issiqxona, 200 quti asalari uyasi, 90 ta tikuvchilik uskunasi va 85 ta motokultivator yetkazib berildi. Natijada 480 nafar aholi bandligi ta‘minlandi.

Prezidentimiz bir yig‘ilishda xalqimizga baliq emas, qarmoq berishimiz kerakligi haqida aytgan edi. Bu fikr faoliyatimizning asosiy mezoniga aylanib, samarasini bermoqda. Misol uchun, Mundiyyon mahallasida yashovchi Dilmurod Sattorovning 15 sotix tomoqasi 3 sotixiga kartoshka, 4 sotixiga qulupnay, 5 sotixiga uzum va nok ko‘chatlari hamda 3 sotixiga pomidor ekildi. Kredit hisobiga motokultivator olib berilishi natijasida ish hajmi qisqarib, xonadonning yillik daromadi 40 million so‘mdan 85 million so‘mga yetdi.

O‘tgan davr mobaynida 4,2 ming nafar aholiga 1446 gektar yer maydoni ijaraga berildi. Yoshlarning daromadini oshirish maqsadida band bo‘lmagan yoshlar uchun 609,3 gektar yer auktsion savdolariga chiqarildi va unda 1304 yosh yig‘it-qiz g‘olib bo‘ldi.

2024-yilda tumanimizda 25,2 ming aholi bandligini ta‘minlash rejalashtirilgan, shundan investitsiya loyihalari orqali 1,4 ming, xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 9,9 ming, qishloq xo‘jaligida 13,4 ming, qurilish sohasida esa 500 aholi bandligi ta‘minlanadi. Shuningdek, yangi tadbirkorlik subyektlari sonini 1378 taga oshirish maqsad qilingan.

Joriy yil yanvar-may oylarida 188 ta kichik biznes subyekti va 391 ta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi.

2023-yil hududiy investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 381,2 million dollarlik 109 ta loyiha ishga tushirilib, qariyb 1,5 ming fuqaro ish bilan ta‘minlandi. 2024-yilda esa umumiy qiymati 101,1 million dollarlik 127 ta loyihani ishga tushirish orqali 1300 ga yaqin yangi ish o‘rinlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Ayni paytgacha 22 ta loyiha ishga tushirilib, 200 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

To‘g‘ri, o‘quvchiga raqamlar bir oz zerikarli tuyulishi mumkin. Lekin har bir fakt ortida minglab yurtdoshlarimiz taqdiri aks etishidan kelib chiqib, ularning ayrimlarini ta‘kidlab o‘tishni joiz topdik.

Ha aytgancha, gapni sarhisobdan, vijdon tarozisidan boshlagandik. Nazarimda, hokimning chin bahosi o‘sha hudud rivoji, u yerdagi odamlarning baxtiyorligida aks etadi.

NOZIK XILQAT EGALARINING
O‘RNI ORTIB BORMOQDAIroda MUSAYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi tinglovchisi

Xotin-qizlar mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo‘shmoqda. Ayniqsa, opa-singillarimizning har bir jabhada o‘z o‘rniga ega bo‘lib borayotganini so‘nggi yillarda yanada chuqur his etmoqdamiz. Turli sohalarida erishayotgan yutuq va muvaffaqiyatlari ayollarga e‘tibor yuksakligidan dalolat beradi. Bir so‘z bilan aytganda, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi izchil islohotlar ularning orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida mehnat bilan band aholining 50 foizi xotin-qizlardir. Viloyat ayollarining boshqaruv sohasidagi ulushi 30,6 foizga, siyosiy partiyalar safida 41 foizga, tadbirkorlikda 32 foizga yetdi. Yuksak salohiyatli, faol va tashabbuskor opa-singillarimizdan 620 ga yaqini davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilayotgan bo‘lsa, xalq deputatlari shahar, tuman kengashlari deputatlarining 132 nafari, viloyat kengashi deputatlarining 17 nafari xotin-qiz ekanini alohida ta‘kidlash lozim. Viloyatda ta‘lim-tarbiya sohalarida mehnat qilayotgan xodimlarning 74,5 foizini, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida 77,9 foizini, sanoat tarmoqlarida 41,5 foizini, qishloq xo‘jaligida 39,2 foizini, ilm-fan va texnika sohasida 34 foizini aynan ayollar tashkil etayotgani ularning ijtimoiy-siyosiy faolligidan darak beradi.

Davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida viloyatda 1618 nafar faol xotin-qizdan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Joriy yilda ularning rahbarlik lavozimlariga munosib, yuqori bilim va salohiyatga ega 9 nafar Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida tashkil etilgan “Rahbar ayollar maktabi”da malaka oshirib qaytdi. Mazkur nomzodlarning barchasi bugun rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda.

Ayol rahbar sifatida faoliyat ko‘rsatishining o‘ziga xos ijobiy jihatlari bor. Ya‘ni nozik xilqat sohibalari ijtimoiy masalalarga yurakdan yondashadi, dilidan o‘tkazib qarorlar qabul qiladi. Ijtimoiy masalalar esa xalqning dardi, xalqning muammosi, shu kecha-kunduzda uning boshidan o‘tayotgan muammolar bilan uyviy bog‘liqdir. Ayol buni ko‘proq, teranroq tushinib yana bir sababi u oila bekasi, bolalar tarbiyachisi, ularning sog‘lig‘i uchun qayg‘uradigan shifokordir. Siyosiy hayotda faol opa-singillarimiz aynan mana shunday xislatlari tufayli qonunlarning yanada hayotiy bo‘lishi uchun kurashadi, aniq masalalar, muammolar yechimini uchun jon kuydiradi.

Keyingi yillarda ayollarimizning ilmiy salohiyatini yuzaga chiqarish uchun zarur imkoniyatlar yaratib berildi. Buning tashig‘i sifatida so‘nggi uch yilda Xorazm viloyatida 13 nafar fan doktori hamda 190 nafardan ziyod fan nomzodi darajasiga ega olima ayol ilm-fan tarmoqlarining turli sohalarida ilmiy faoliyat yuritmoqda.

Chuqur bilim va ma‘naviy barkamollik ustun joyda hamisha taraqqiyot bo‘ladi. Yurtimiz xotin-qizlarining sifatli ta‘lim olishiga alohida ahamiyat qaratilayotgani boisi shunda. Ma‘rifatparvar jadid bobomiz Abdulla Avloniy ta‘biri bilan aytganda, “Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”. Darhaqiqat, qiz bola oliy ma‘lumotli bo‘lsa,

qanchalik bilim va salohiyat olsa, buni kelgusida farzandlariga ham “yuqtiradi”, har tomonlama barkamol yoshlarni voyaga yetkazish masalasiga mas‘uliyat bilan yondashadi. Mamlakat kelajagi esa mana shunday dunyoqarashga ega onalar tomonidan yaratiladi.

Joriy yilda viloyatdagi ehtiyojmand oilalarda yashayotgan qizlar, shuningdek, mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yillik mehnat stajiga ega opa-singillarimiz oliygo‘hlariga alohida kvota asosida o‘qishga qabul qilindi. Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan ehtiyojmand qizlar hamda boquvchisi bo‘lmagan yolg‘iz ayollardan 150 nafarining kontrakt to‘lovlari to‘lab berildi.

Ushbu muazzam kunlarda barcha yurtdoshlarimizni “Bir bo‘lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!” g‘oyasini o‘zida mujassam etgan ishtirokchining 33 yillik shodiyonasi bilan samimiy qutlayman. Mustaqilligimiz abadiy bo‘lishini, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik mangu hukm surishini, mamlakatimiz yanada yuksalib, bundan-da taraqqiy topishini tilab qolaman. Yangi O‘zbekistonda barpo etishda va Uchinchi Renessans bunyodkori bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashda yurtimiz ayollariga kuch-quvvat va g‘ayrat-shijoat yor bo‘lsin!



Darhaqiqat, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi ish o‘rinlarini ko‘paytirish va kambag‘allikni qisqartirishdir. Bu yo‘nalishda tumanimizda ham manzilli chora-tadbirlar asosida samarali ishlar yo‘lga qo‘yilgan. O‘tgan yili kambag‘allik darajasini 14 foizdan 10,5 foizga tushirishga erishdik.

Aholi bandligini ta‘minlash maqsadida oilaviy tadbirkorlikka 85 milliard so‘m imtiyozli kredit va 2,3 milliard so‘m subsidiya, dehqonchilik uchun esa 2063 gektar yer maydoni ajratildi. Bundan tashqari, eksportbop mahsulotlar yetishtirish uchun 111 gektar yer maydoni sabzavotchilik yo‘nalishida 115 lotda auktsionga chiqarildi. Tuman bo‘yicha 1200 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil qilinib, 200 ta korxona faoliyati kengaytirildi. Pirovardida, o‘tgan yili 3000 aholi kambag‘allikdan chiqarildi.

Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishda loyihabay va xonadonbay tizimi joriy qilingani qo‘l kelyapti. Masalan, tumandagi Qumoq mahallasida mingdan artiq xonadon, boshqacha aytganda, ulardagi 4800





Moziyga yuzlanib

Tag‘in o‘sha ayolni tushimda ko‘rdim. Menga u har gal turli shakl va o‘lchamda namoyon bo‘ladi. Bu safar azal-azaldan odamlar yashab kelgan va endi tashlab ketilgan uyga o‘xshab ko‘rindi. Uyning derazasini xiragina yorib chiqib, zulmatga nayzasini qadab turadigan chiroq ham uning ko‘ksida allaqachon o‘chgan. Bu chiroqni o‘zi o‘chirdimi yo boshqa birovmi — uni bilmayman, o‘ylaganim sari hammasi tunning bag‘ri kabi qorayib, mavhumlashib boryapti. Tun esa muazzam. Ana, qorong‘i ma‘voda yulduzlar mushakbozlik qilyapti. Sodiq qo‘riqchiday fonus ko‘tarib yurgan yonarqo‘ng‘iz yulduzlarni oralab yuribdi. Chigirtkalar go‘yo kecha qo‘ynidan sirli ohanglarni bir-bir terib olayotgandek uzib-uzib chirillayapti. Men bularni qayerdan bilyapman, ko‘rayotganim tushmi yo o‘ngimmi?

Shu payt davra aylanib o‘ynayotgan qizlar monand mening oldimdan to‘g‘ri abadiylik tomon o‘tib ketayotgan vaqt ilkidan varaqlari titilib ketgan sap-sariq daftar tushib qoladi. Qiziquvchan shamol ochishni istaydi-yu, iztirob siyohida bitilgan, achchiq qismatlardan so‘z ochuvchi daftar haqiqatiga dosh berolmasligini tushunib, nari ketadi. Men esa, aksincha, negadir yutoqib o‘qish uchun unga qo‘l uzatganim hamono daftardan quloqni batang qiluvchi shunday qichqiriq eshitiladiki, tushinning devorlari zirillab ketadi, so‘ng u ko‘pirib oqayotgan tim qora loyqa ostida bosilib, eshitilmay qoladi. Men uning cho‘kib ketayotganini anglayman, bu g‘ussani qutqarib qolish uchun barmoqlarimni harflarga uzataman:

“1907-yilda Chust rayonining Chust qishlog‘ida tug‘ilgan, SSSR grajdani, partiyasiz, 1927-yildan 1937-yilgacha VKP(b) a‘zosi bo‘lgan va sinfiy hushyorligini yo‘qotgan hamda aksilingilobiy usnur bilan aloqa bog‘lagani uchun partiyadan o‘chirilgan, qamalguniga qadar Toshkent shahri Kirov tumani partiya qo‘mitasi kotibi bo‘lgan Sobira Xoldorova O‘zSSR Jinoyat majmuasining 63-va 67-moddalari bo‘yicha aybdor sanaladi.

Ushbu ishni ko‘rish uchun SSSR NKVD huzuridagi alohida majlisga yo‘llansin”.

Sahifa so‘ngida yana bunday yozuv bor: “Ma‘lumotnoma

Ayblanuvchi Xoldorova 1937-yilning 22-sentabridan boshlab qamoqda. Ichki ishlar xalq komissarligi SIZOsiida saqlanmoqda. Ish bo‘yicha ashyoviy dalillar yo‘q.”

NKVD DHB shoshilinch ishlar bo‘yicha vakili”.

Sobira... Yodimning eng chuqur kovaklarida qad rostlagan birinchi o‘zbek jurnalist ayoli. Yurtimizda xotin-qizlar matbuotining vujudga kelishiga ulkan hissa qo‘shgan Sobira Xoldorova bisha o‘tgan hayot yo‘li, uning achchiq qismati har sahifani varaqlaganim sayin butun chalkashliklari bilan ko‘z o‘ngimdan bir-bir o‘ta boshlaydi. Qatag‘onga uchragan ayolning iztiroblari salqi qovog‘larimga inadi, ko‘zlarimni achitadi, ammo baribir o‘qishdan to‘xtamayman.

Mana, uning tergov anketasi. Men undan Sobira Xoldorovanning 1907-yili Chustda kambag‘al dehqon oilasida dunyoga kelgani, 1921-yilgacha, ya‘ni o‘n to‘rt yoshga to‘lgunga qadar internatda tarbiyalangani, o‘qigani, Moskvada jumalistika sohasida ta‘lim olgani, kommunistik partiya safiga kirganini bilib olaman. “Yangi yo‘l” jurnaliga birinchi muharrirlik qilgan Sobiraning oilasida 12 yoshli o‘g‘li Po‘lat va 5 yashar qizi Manzura, qari onasi Komila bor. Eri Mo‘min Usmonov aksilingilobchi sanalib, undan xiyol oldinroq qamoqqa olingan.

Sobira Xoldorova va Mo‘min Usmonovning ikki bolasi yetimxonaga jo‘natiladi. Er-xotiga tegishli mulk har biriniki alohida-alohida xatga olinib, onasi bilan bolalarining kiyim-boshi, ko‘rpa-yostig‘i-yu go‘sh t qiymalagichdan tortib, qoshiqqacha — bari musodara qilinadi. Birgina ayolga tasavvurga sig‘mas darajada zug‘um o‘tkazishga majbur qilgan sabab nima edi? Uning aybi bormidi o‘zi?

Keyingi varaqni ochaman. Unda O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining

1936-yilning 26-martida Xoldorovaga nisbatan e‘lon qilgan qarori keltirilgan:

“Tergov Sobira Xoldorovanning O‘zbekistondagi aksilsho‘roviy o‘ng troskiychi tashkilotining a‘zosi bo‘lganini aniqladi. U O‘zbekiston K(b)P Markaziy Qo‘mitasining sobiq sarkotibi, hozirga kelib otib yuborilgan xalq dushmani Akmal Ikromov rahbarligidagi aksilsho‘roviy millatchi, o‘ng troskiychi tashkilotga a‘zo bo‘lgan. Shu uyushma topshirig‘iga ko‘ra, g‘oyaviy frontda zararkunandalik qilgan. Marksizm-leninizm klassiklari asarlarining o‘zbek tilida nashr etilishiga zarar yetkazish niyatida Xoldorova 1932-1934-yillarda eri Usmonov bilan birgalikda o‘rtog‘ Stalinning “Leninizm masalalari” asarini buzib tarjima qilgan va 30 ming nuxxada chop etgan. Oxir-oqibatda siyosiy xatolari tufayli bu kitob savdo tashkilotlaridan yig‘ishtirib olingan va natijada davlatga 144 ming 782 so‘m 82 tiyin ziyon yetkazilgan”.



Bu orada Sobira Xoldorovanning “jinoyat ishi” ko‘rilmay, turmada azob chekib yotadi. Ko‘zim oldida xax, qo‘lansa hidga to‘yingan to‘rt sovuq devor ichida titrab-qaqshab yotgan Sobira tasviri gavdalangach, oyog‘imga minglab chumoli o‘rmalagandek seskanib ketaman. Keyingi sahifaga o‘tishga majolim qolmaydi, ammo haqiqatni bilishim shart, chekkan g‘ussalari haqqi, bilishim zarur.

Mana, Komila opa ichki ishlar xalq komissari Sadjayava 1939-yil 15-dekabrda yo‘llagan arizasida qizi Toshkent turmasida yotgani, ikki yildan ortiq tergov qilinayotgani, ammo tergov yakunidan darak yo‘qligini, qizi aybdor bo‘lsa, tergovni tezlatib sud qilishlarini yolvorib so‘ragan. Bir xil yo‘sinda azoblayverib zerikkan tergovchilar nihoyat so‘nggi hukmga ruxsat beradi — Sobira Xoldorova 1940-yilda SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi alohida majlisi qarori bilan 5-yil muddatga Yoqutistonga badarg‘a qilinadi. Sobira muddatidan oldin, ya‘ni 1942 yili qaytib kelganidan keyin ham uni tinch qo‘yishmaydi. 1949-yil mayida u yana Toshkentdan besabab surgun qilinadi. Tag‘in ruhiy xastalar shifoxonasiga tushadi



va uch oy davolanadi. Lekin hali shifo topib ulgurmasidan Toshkentdan 50 kilometr nariga jo‘natiladi.

— Tergovchi?
— Qovoqlari soliq, soqoli qirilgan, bir paytlar semiz bo‘lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, qarimsiq yuziga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi. Nafarat bilan qarardi. Mazax qilib rohatlanardi. Kishini bo‘g‘ib, holsiz qilib qo‘yadigan bu adovat menga o‘shanda uning butun tanasidan, butun vujudidan, qoqshol

bo‘lib qolgan barcha qon tomirlaridan hamda chakalakzor ichidagi la‘natlangan qo‘rg‘on kabi nurab yotgan umr qal‘asidan ufurayotgandek tuyulgandi.

— Hid?
— Tergovchidagimi? Unga qarab turib, doimo dud hidini tuyardim: balki menga shunday tuyulgandir, ammo bu oddiy tutunning hidi emasdi, men bunday achimsiq hidni ko‘p yillar avval qishlog‘imizdagi ovchilarning qurum bosgan mittig‘ida his etgan edim va tergovchidagi hid haqiqatan hozirgina portlagan o‘q hidiga o‘xshardi: ehtimol, bu hid mening dimog‘imda mamlakat aql bovar qilmas xiyonat va sotqinlikdan so‘ng vayron etilgan deb o‘ylay boshlaganimdan keyin paydo bo‘lgandir?

— Umid?
— Umid... Ichimdagi xarobalar ichra kulga botgan uvada xarsanglar ortida ko‘zga zo‘rg‘a tashlanar-tashlanmas bo‘lib, shuncha yong‘inu alg‘ov-dalg‘ovdan so‘ng ham hali bus-butligicha to‘xtab qolgan tegirmon parragi ko‘rinardi: parrak hali mustahkam edi. Tegirmonning eshigi, yon devori qulab tushgan bo‘lsa-da, men qamoqxona bo‘ylab tegirmon parragini aylantirib yuborishni,

“Tergov Sobira Xoldorovanning O‘zbekistondagi aksilsho‘roviy o‘ng troskiychi tashkilotining a‘zosi bo‘lganini aniqladi. U O‘zbekiston K(b)P Markaziy Qo‘mitasining sobiq sarkotibi, hozirga kelib otib yuborilgan xalq dushmani Akmal Ikromov rahbarligidagi aksilsho‘roviy millatchi, o‘ng troskiychi tashkilotga a‘zo bo‘lgan. Shu uyushma topshirig‘iga ko‘ra, g‘oyaviy tashkilotga a‘zo bo‘lgan. Marksizm-leninizm klassiklari asarlarining o‘zbek tilida nashr etilishiga zarar yetkazish niyatida Xoldorova 1932-1934-yillarda eri Usmonov bilan birgalikda o‘rtog‘ Stalinning “Leninizm masalalari” asarini buzib tarjima qilgan va 30 ming nuxxada chop etgan. Oxir-oqibatda siyosiy xatolari tufayli bu kitob savdo tashkilotlaridan yig‘ishtirib olingan va natijada davlatga 144 ming 782 so‘m 82 tiyin ziyon yetkazilgan”.

ichimdagi yurtga oz bo‘lsa-da, hayot bag‘ishlashni juda ham istab qolardim. Menimcha... shu parrak umidim edi!

Sobira o‘zining nohaq mahkum etilganini aytib, oqlashlarini so‘rab 1943-yildan to 1949-yilgacha SSSR Oliy Soveti va SSSR Ichki ishlar xalq komissarligiga bir necha bor ariza yozdi. Tabiiyki, arizalari javobsiz qoldi. Faqatgina oradan yetti-sakkiz yil o‘tgach, haqiqat qaror topdi — 1956-yilning 22-iyunida Turkiston harbiy okrugi harbiy tribunali Sobira Xoldorova ishini qayta ko‘rib chiqdi. Podpolkovnik Guskov raisligida, adliya podpolkovniklari Sherbakov va Ivanov a‘zolidagi ajrim chiqardi. Ajrimda bunday so‘zlar bitildi:

“Xoldorova ishi bo‘yicha tergov xolis olib borilmagan, qonunga xilof ravishda ayblashga urililgan. Xoldorova hibsga olingandan so‘ng oradan o‘n yetti oy o‘tgandan keyingina unga aybнома e‘lon qilingan”.

Bu gal tergovchilar salafllari e‘tibor qilmagan ko‘rsatmalarini inobatga oladi. Kech bo‘lsa-da, insof kiribdi, deb o‘zimni ovutgandek bo‘laman. Keyingi sahifaga o‘taman. Keyingi sahifada bunga boz to‘xtalishadi:

“Dastlabki tergovda Xoldorova o‘zining aksilsho‘roviy millatchilik tashkilotiga a‘zolgini qat‘iyan rad etib, o‘zining faqat Stalinning “Leninizm masalalari” kitobini o‘zbek tilida xatolar bilan chop etishda aybdorligini tan oladi. KPSS Markaziy Qo‘mitasi kotibiga yozgan shikoyatida ham, 1956-yil martidagi tergovda ham Xoldorova aksilingilobiy faoliyatdagi aybni qat‘iyan rad etgan”.



Ana shu va boshqa qator holatlardan kelib chiqib, SSSR NKVD huzuridagi alohida majlisning Sobira Xoldorovaga doir 1940-yil 5-dekabrda qarori bekor qilinadi. Ha, bekor qilinadi. Ammo muborak adolatning qaror topishi o‘n to‘qqiz yilga kechikkan edi.

Sobiraning o‘n to‘qqiz yillik hayoti hasratda o‘tdi. Bu azob-uqubatlar esa asorsiz ketmadi. 1940-yil 5-dekabrda qaror bekor qilingani haqidagi ma‘lumotnomani Sobiraga yo‘llaganlarida u qattiq betob edi.

1956-yilning 30-iyun kuni bu hujjatni uning o‘g‘li Po‘lat imzo chekib oladi, hujjatning boshqa bir nusxasi orqasiga esa katta leytenant Po‘latning gaplari asosida “S.Xoldorova 1956-yilning 20-mayidan shu kunga qadar Toshkentdagi ruhiy shifoxonada davolanyapti”, deb yozib qo‘yadi.

Ana shu bir parcha xatda do‘zax azobini tortgan ayolning mashaqqatli taqdiri va aldovlar, ikkiyuzlamachiliklar, fitnalardan tolgan horg‘in hayoti yotibdi. Bu hayotning purg‘ussa tasvirlarini ko‘z oldimizga keltirishga qanchalik urinmaylik, u chekkan azobning mingdan bir bo‘lagini ham his qilishga yuragimiz dosh berolmasligi aniq.

Sobira yigirma to‘qqiz yoshida qamoqqa olindi. Uning navqiron umri bekordan bekorga mustabid tuzum zindonlarida o‘tdi. Vujudidagi hayot belgilarini sassiq qamoqxonalarning to‘kik devorlari yutdi. Ko‘zlaridagi nurni tuzumning yulduzsiz tunlari simirdi. U qop-qora chilvir sochlarini g‘am daryosida yuvishga majbur bo‘ldi.

Halol kishi ham ortiga boqib, goh tahliliga tushadi, qancha oqil bo‘lsa, zimmasiga shuncha mas‘uliyat yuklaydi, o‘ziga talabi haddidan yuqori bo‘ladi. U qayta-qayta ikki tushuncha, to‘g‘rirog‘i, ikki hayot tarzida, gunoh va savob oraliq‘ida shaxsning, insoniylikning, musulmonlikning mohiyatini ko‘radi. Men ham ko‘rmog‘chi

edim, ammo ulgurmadim. Hafsalamni, e‘timodimni o‘ldirishdi.

Axir qachonlardir men uchun ham vaqt, farq, dard... mavjud edi: kemtiklikdan o‘zinni qo‘yarga na zamon va na makon topa bilardim. Endi esa hech nima yo‘q. Faqat

o‘sha yo‘qlikdan meros qolgan soya, so‘qir tabassum, mo‘ltiroq nigoh, kimgaligi noayon gina bor: tergov xonasi devorida muzlagan o‘tmish...

Mana, hozir o‘nimdan turaman-u, bir lahza ham ko‘z oldimdan nari jilmaydigan o‘sha bedil devor chuqurlariga muhrlangan mungli kechamni o‘sha o‘zim tubida so‘nib borayotgan yagona cho‘g‘dan yaralajak gulxanda hech qachon, hech qayerda, hech nimadan na xavotirlanmay, na halovatlanmay, na afsuslanmay yo‘nilgan kosov bilan kovlab-kovlab yoqib yuboraman...

Chin anglam izhor va iqrordan tug‘iladi. Tushunish va tushuntirishdan ko‘ngillarning basirat ko‘zini ochadi. Shaxs o‘zini erkinlikda tugal tiklaganidek bor haqiqat hurlikda o‘ziga yo‘l topadi. Sobiraning baxti u bolaligida shuuriga quyilgan ulug‘ kalomlar havosini simirib, qadriyatlar nimaligini bilganidadir. Nachoraki, jurnalist ular taqiqlangan tuzumda yosh umrini kechirdi. Saodati bir umr ezgulikni bayroq qilib, hayoti shomida istiqolga yeta olmas-da, izhorga ham, iqrorga ham ulgurgani bo‘ldi.

Nonning haqiqiy ta‘mini och qolgan biladi, deb marhamat qiladi Jaloliddin Rumiy. Sobira ham salkam sakson yil istiqolga zoriqdi, uning ziloliga tashna bo‘ldi. Shuning uchun u chekkan zahmatlarning zalvori, quvonchi va hayratini, ishonib-ishonolmay turgan holatini, muqaddas huquqqa yetilgandagi hayajonini xayolan tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Qahratoning qari qizdek mumsik, ko‘rbigiz ayozida butun vujudini chimchilayotgan izg‘iringa parvo qilmay bir ayol bormoqda. Yo‘lida uchragan har neki bor — hayrat bilan tikiladi. Ayozni qarsillatib qayoqqa ketyapti bu ayol? Yo‘l yurgan sovoqtmaydi. Buni yo‘lchi biladi. Bilgani sari jadallaydi. Maqsad bor, manzil bor, lekin qachon yetib boradi, manzilgacha umri yetarmikan? Hozir buni o‘ylagani yo‘q. Bir qadam bo‘lsa ham yurib qolgani unga kuch beradi. Muhimi, yurish kerak. Egni yupun. Qor odamdek ko‘rinadi olisdan: oppoq. Ortidan yuguray deymam, ammo yo‘llarga oyog‘im bardosh bermaydi. Hech yo‘q ismini aytib chaqiray deb bir muddat kalovlanib qolaman. Ismi nima edi? Esladim. Ikki kaftimni og‘zimga kamay qilib qichqiraman: — Vataaan! Ona Va-taan!..

Rahmatli enam “Mustaqillikni birinchi bor eshitganimda kattaroq odam bo‘lsa kerak-da deb o‘ylagandim”, deganida miriqib kulgandim. Endi bilsam, u adashmagan ekan. Mustaqillik chindan odam, buyuk odam...

Ey sen, mening buyuklarimni quvonchdan yig‘lartgan kun. Ey sen, men suyanganlarim senga suyanib, sening kelishingni sevinchning issiq yoshlari bilan kutib olgan ulug‘ sana. Men sen kelgach, shu zaminga tomir tashladim, mangu ildizlarimga tutashdim va bugun ular bilan tillashishdek baxtga muyassar bo‘ldim.

Men senga topdaman! Saratonda sovoqotgan, qahratoning qahriga qaram bo‘lmagan bahodir bobolarim, jadid momolarim, Mayram-u Sobiraxonlarim haqqi, nimjon musicha bolasi uchun qilgan jasorati haqqi, neki onsiz mavjudotlar o‘z go‘shasi uchun kurashganlari haqqi, enamning seni yanglish tushungani haqqi, endi doimo mangu bo‘l, mangu bo‘l!

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri